# XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
*(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma’lumot)*

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 785,5 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 268,3 mln AQSH dollariga yoki 51,9 %ga ko‘paygan.



**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**
***(yanvar-dekabr, mln AQSh dollari)***



| | 2021- yil | 2022- yil | O‘sish sur’ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|---|
| **Tashqi savdo aylanmasi** | **517,2** | **785,5** | **151,9%** | **X** |
| **Eksport** | **231,2** | **245,2** | **106,0%** | **100,0** |
| *tovarlar* | *212,5* | *230,3* | *108,4* | *93,9* |
| *xizmatlar* | *18,7* | *15,0* | *79,8* | *6,1* |
| **Import** | **286,0** | **540,2** | **188,9** | **100,0** |
| *tovarlar* | *286,0* | *540,2* | *188,9* | *100,0* |
| **Saldo** | **-54,7** | **-295,1** | x | x |

Eksport hajmi 245,2 mln AQSH dollari (6,0 %ga ko‘paygan) bo‘lib, import hajmi 540,2 mln AQSH dollarini (88,9 %ga ko‘paygan) tashkil etdi. Hisobot

davrida 295,1 mln AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**
***(2022- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***

| Davlat | TSA | Eksport | Import |
|---|---|---|---|
| Braziliya | 189,8 | 0,0 | 189,8 |
| Rossiya Federatsiyasi | 154,4 | 95,5 | 58,9 |
| Turkiya | 110,1 | 24,4 | 85,7 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 106,2 | 10,5 | 95,7 |
| Qozog'iston | 52,0 | 39,3 | 12,7 |
| Qirg'iziston | 30,7 | 29,8 | 0,8 |
| Pokiston | 13,0 | 12,7 | 0,3 |
| Litva | 12,7 | 1,0 | 11,7 |
| Hindiston | 12,7 | 0,4 | 12,3 |
| Turkmaniston | 11,8 | 4,1 | 7,7 |

Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahonning 125 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (24,2 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Turkiya (14,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,5 %), Qozog'iston (6,6 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va

uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)***

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Braziliya** | **29,9** | **0,0** | **189,8** |
| Eksport | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Import | 29,9 | 0,0 | 189,8 |
| Saldo | -29,9 | 0,0 | -189,8 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **137,0** | **113,9** | **154,4** |
| Eksport | 49,7 | 70,4 | 95,5 |
| Import | 87,3 | 43,5 | 58,9 |
| Saldo | -37,5 | 26,8 | 36,6 |
| **Turkiya** | **47,7** | **100,6** | **110,1** |
| Eksport | 18,0 | 31,0 | 24,4 |
| Import | 29,7 | 69,5 | 85,7 |
| Saldo | - 11,7 | -38,5 | -61,2 |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **84,9** | **121,1** | **106,2** |
| Eksport | 15,6 | 23,3 | 10,5 |
| Import | 69,3 | 97,8 | 95,7 |

| Davlat nomi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Saldo | -53,7 | -74,5 | -85,3 |
| **Qozog'iston** | **24,5** | **30,2** | **52,0** |
| Eksport | 20,3 | 22,4 | 39,3 |
| Import | 4,3 | 7,8 | 12,7 |
| Saldo | 16,0 | 14,6 | 26,6 |
| **Qirg'iziston Respublikasi** | **37,9** | **36,7** | **30,7** |
| Eksport | 37,5 | 36,4 | 29,8 |
| Import | 0,3 | 0,3 | 0,8 |
| Saldo | 37,2 | 36,1 | 29,0 |
| **Pokiston** | **1,5** | **10,8** | **13,0** |
| Eksport | 1,2 | 10,0 | 12,7 |
| Import | 0,3 | 0,9 | 0,3 |
| Saldo | 0,9 | 9,1 | 12,4 |
| **Litva** | **1,9** | **4,6** | **12,7** |
| Eksport | 0,0 | 0,4 | 1,0 |
| Import | 1,9 | 4,2 | 11,7 |
| Saldo | -1,9 | - 3,9 | -10,7 |
| **Hindiston** | **3,3** | **0,9** | **12,7** |
| Eksport | 0,4 | 0,3 | 0,4 |
| Import | 2,9 | 0,6 | 12,3 |
| Saldo | -2,4 | -0,3 | -11,8 |
| **Turkmaniston** | **10,8** | **11,6** | **11,8** |
| Eksport | 5,6 | 6,1 | 4,1 |
| Import | 5,1 | 5,5 | 7,7 |
| Saldo | 0,5 | 0,7 | -3,6 |

- Ming AQSh dollarini mln AQSh dollariga yahlitlashda (+:-) 0,1 ga farq qilishi mumkin



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, ulushi, %da)***

Viloyatimizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 34,3 %ni tashkil etdi.




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022 - yilning yanvar-dekabr oylarida 2021 - yilga nisbatan 68,9 foizga ko‘paygan va jami TSAdagi ulushi 65,7 %ni tashkil etdi.

# XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
***(2022- yil yanvar-dekabr)***

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 170 tani tashkil etib, ular tomonidan 245,2 mln AQSH dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilga nisbatan 6,0 %ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,9 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (43,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (32,3 %), turli xil tayyor buyumlar (12,5 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)***




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 32,3
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 2,5 %
- Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 2,1 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,5 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,3 %
- Sanoat tovarlari – 43,6 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 0,1 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 12,5%
- Xizmatlar – 6,1 %

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-dekabr)*

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln.AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSH dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, % da |
| **Jami eksport** | **245,2** | **106,0** | **100,0** | **177,9** | **122,3** | **100,0** | **67,3** | **78,4** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 79,2 | 113,4 | 32,3 | 64,5 | 116,6 | 36,3 | 14,7 | 101,2 | 21,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | - | 0,0 | 0,0 | - | 0,0 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 6,1 | 57,3 | 2,5 | 1,3 | 61,2 | 0,7 | 4,8 | 56,3 | 7,1 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 5,1 | 3,8 m. | 2,1 | 3,7 | 3,1 m. | 2,1 | 1,4 | 9,7 m. | 2,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,3 | 19,1 m. | 0,5 | 0,3 | 3,9 m. | 0,1 | 1,1 | - | 1,6 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,8 | 76,8 | 0,3 | 0,8 | 121,3 | 0,4 | 0,0 | 8,9 | 0,1 |
| Sanoat tovarlari | 106,9 | 94,0 | 43,6 | 68,3 | 121,8 | 38,4 | 38,6 | 66,9 | 57,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,2 | 55,7 | 0,1 | 0,1 | 33,5 | 0,1 | 0,1 | 12,7 m. | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 30,7 | 197,7 | 12,5 | 29,4 | 190,3 | 16,5 | 1,3 | 14,3 m. | 2,0 |
| Xizmatlar | 15,0 | 79,8 | 6,1 | 9,6 | 67,1 | 5,4 | 5,4 | 120,3 | 8,0 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga

eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va turli hil tayyor buyumlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mashinalar va transport asbob-uskunalari , kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, %da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 29,5 | 30,2 | 32,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | - | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 9,2 | 4,6 | 2,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 0,0 | 0,6 | 2,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,3 | 0,0 | 0,5 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,4 | 0,5 | 0,3 |
| Sanoat tovarlari | 40,7 | 49,2 | 43,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | 0,2 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 13,6 | 6,7 | 12,5 |
| Xizmatlar | 5,2 | 8,1 | 6,1 |



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 38,9 %), Qozog‘iston (16,0 %), Qirg‘iziston (12,2 %), Turkiya (10,0 %), Pokiston (5,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (4,3%) va Tojikiston (1,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiy ulushi 88,5 foizni tashkil etmoqda.



## XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2022- yil yanvar-dekabr, %da)*




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida o‘tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rin egallagan.

## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
*(yanvar-dekabr)*

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, %da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 70,4 | 95,5 | 141,5 | 135,7 | 1 | 1 |
| Qozog‘iston | 22,4 | 39,3 | 110,7 | 175,1 | 5 | 2 |

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, %da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Qirg‘iziston Respublikasi | 36,4 | 29,8 | 96,9 | 82,0 | 2 | 3 |
| Turkiya | 31,0 | 24,4 | 172,2 | 78,7 | 3 | 4 |
| Pokiston | 10,0 | 12,7 | 8,2 m. | 126,9 | 6 | 5 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 23,3 | 10,5 | 149,9 | 44,9 | 4 | 6 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg‘idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)***

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog‘iston | | Qirg‘iziston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | **2022- y.** |
| Jami eksport | 70,4 | 95,5 | 22,4 | 39,3 | 36,4 | 29,8 | 31,0 | 24,4 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 19,6 | 36,1 | 13,1 | 27,1 | 17,1 | 0,0 | 0,6 | 0,2 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | 0,0 | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,5 | 0,8 | 0,0 | 0,3 | 0,9 | 0,0 | 1,4 | 0,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar | 1,1 | 3,6 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,4 |

| XSST tarkibi | Rossiya | | Qozog‘iston | | Qirg‘iziston | | Turkiya | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | **2022- y.** |
| Hayvon va o‘simlik lar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | 0,0 | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 0,0 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 0,4 | 0,0 |
| Sanoat tovarlari | 37,7 | 45,3 | 3,3 | 5,1 | 8,9 | 9,8 | 28,3 | 21,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,4 | 0,0 | 0,0 | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 0,4 | 2,1 | 5,1 | 6,7 | 9,1 | 19,9 | 0,1 | 1,3 |
| Xizmatlar | 11,0 | 7,4 | 0,8 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,3 | 0,1 |

Xizmatlar eksporti hajmi 15,0 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,1 %ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 79,8 foizni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (49,6%), safarlar (turizm) (25,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (24,5%) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi %da)***





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 76,5 mln dollar qiymatli yoki 133,4 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 34,2 mln AQSH dollariga teng 67,6 ming tonna sabzavot, shuningdek, 20,0 mln AQSH dollari qiymatidagi 33,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 31,2 %ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, mln AQSH dollari)***




Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajribaga ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (47,6 %), Qozog‘iston (34,1%) va Pokiston (14,2%) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## XORAZM VILOYATINING IMPORTI
### *(2022- yil yanvar-dekabr)*

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning import hajmi 540,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 188,9% ni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,7%), mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,3 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari 6,8 %), sanoat tovarlari (6,7 %), turli xil tayyor buyumlar (4,5 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.




**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, %da)***



- **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 37,7 %**
- **Ichimliklar va tamaki – 0,0 %**
- **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari – 6,8 %**
- **Mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 1,7 %**
- **Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,7 %**
- **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 4,6 %**
- **Sanoat tovarlari – 6,7 %**
- **Mashinalar va transport asbob-uskunalari – 37,3 %**
- **Turli xil tayyor buyumlar – 4,5 %**

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-dekabrida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 254,3 mln AQSH dollariga ko‘paygan va 540,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
*(2022- yil yanvar-dekabr)*

| Tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, % da | mln AQSh dollari | o‘tgan yilga nisbatan, % da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| **Jami import** | **540,3** | **188,9** | **100,0** | **91,6** | **138,4** | **100,0** | **448,7** | **2,0 m.** | **100,0** |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 203,6 | 10,0 m. | 37,7 | 8,7 | 68,7 | 9,5 | 194,9 | 25,6 m. | 43,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 182,6 | 0,0 | 0,1 | 182,6 | 0,1 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 36,9 | 132,3 | 6,8 | 33,6 | 137,4 | 36,7 | 3,3 | 95,7 | 0,7 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash | 9,2 | 3,3 m. | 1,7 | 4,9 | 2,2 m. | 5,4 | 4,3 | 6,7 m. | 1,0 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| materiallar | | | | | | | | | |
| Hayvon va oʻsimliklar moyi (yogʻlari), yogʻlar va mumlar | 3,7 | 118,4 | 0,7 | 3,1 | 106,5 | 3,4 | 0,6 | 2,8 m. | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oʻxshash mahsulotlar | 25,1 | 135,9 | 4,6 | 15,0 | 2,8 m. | 16,4 | 10,1 | 76,8 | 2,3 |
| Sanoat tovarlari | 36,2 | 169,6 | 6,7 | 12,3 | 146,8 | 13,4 | 23,9 | 184,3 | 5,3 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 201,3 | 173,3 | 37,3 | 10,8 | 2,2 m. | 11,8 | 190,5 | 171,2 | 42,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 24,1 | 31,8 | 4,5 | 3,0 | 57,8 | 3,3 | 21,0 | 29,9 | 4,7 |




**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**
***(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, %da)***

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami import** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 28,0 | 7,1 | 37,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari | 9,8 | 9,8 | 6,8 |
| Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moyi va shunga oʻxshash materiallar | 0,9 | 1,0 | 1,7 |

| XSST tarkibi | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|---|
| Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 2,0 | 1,1 | 0,7 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 4,7 | 6,5 | 4,6 |
| Sanoat tovarlari | 5,6 | 7,5 | 6,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 29,7 | 40,6 | 37,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 19,4 | 26,5 | 4,5 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
***(yanvar-dekabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)***



2022- yil yanvar-dekabr oylarida import bo‘yicha eng yuqori yettitalikda Braziliya,Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Litva hamda Qozog’iston o‘rin egalladi.

## XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI
*(yanvar-dekabr)*

| Davlatlar | Mln AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Braziliya | 97,8 | 95,7 | 141,1 | 97,9 | - | 1 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 69,5 | 85,7 | 2,3 m. | 123,2 | 1 | 2 |
| Turkiya | 43,5 | 58,9 | 49,9 | 135,2 | 2 | 3 |
| Rossiya Federatsiyasi | 7,8 | 12,7 | 181,9 | 163,3 | 3 | 4 |
| Qozog‘iston | 0,6 | 12,3 | 21,2 | 20,1 m. | 4 | 5 |
| Hindiston | 4,2 | 11,7 | 2,2 m. | 2,8 m. | 24 | 6 |
| Litva | 97,8 | 95,7 | 141,1 | 97,9 | 9 | 7 |

## XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
*(2022- yil yanvar-dekabr)*



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 57 ta xorijiy davlatdan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog’iston , Hindiston hamda Litva hamkor davlatlaridan jami import hajmi 466,7 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 86,4 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: (62) 224-65-09**